

BADIY ASARDA INSON TASVIRI

Aliqulova Dildora

ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Aliqulovadildora92@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10260367>

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy jarayonda insonning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, uning sohir tuyg'ulari, murakkab ruhiy olamini tasvirlashda falsafiy-psixologik, ramziy-majoziy obrazlilik ustunlik qilishi haqida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlari: Obraz, qahramon, kompozitsiya, uslub tipologiyasi, naturalistik tasvir, falsafiy-psixologik.

Badiiy adabiyotda insonning turmush tarzi, ruhiy kechinmalari obrazlar orqali tasvirlanadi. Inson har bir davrda o'zi yashayotgan davrga xos fikrlaydi, uning xatti harakatlarida ijobiy va salbiy xususiyatlar qorishiq holda obrazlarda aks etadi. Bu xususiyatlarni namuna sifatida ochib berish badiiy adabiyot oldidagi vazifadir. Yozuvchi hoh ijobiy hoh salbiy jihatlarni obrazlar orqali ochib berish bilan faqatgina ezigulikka da'vat qiladi.

Inson adabiyotning asosiy qahramoni. Insonning psixik xususiyatlariga ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g'am-tashvish, qayg'u, istirob chekish, zavqlanish, kayfiyat kabilar kiradi. Aytib o'tilganva boshqa shunga o'xshash tariflar insonning umumiy obrazini yaratadi.

Insonni tahlil qilishdagi psixologizm ana shunda namoyon bo'ladi. Ammo gohida bu sohada ham muayyan darajada ushbu jihatning ahamiyatini bo'rttirish holatlariga yo'l qo'yiladi. Inson borlig'ining barcha shakllarida ma'rifat muhim o'rin tutishini yana bir bor etirof etishga to'g'ri keladi.

Yozuvchi o'z asariga qahramonlar, personajlar va hayotiy unsurlar tanlar ekan, uning bu ishi doimo ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu sababli adib har bir obrazga ma'lum ma'no yuklaydi va uni individual sifatlar bilan tasvirlaydi, ana shu ma'no, maqsadga xos so'zlatadi, harakat qildirtiradi. Bunda har bir leksik - stilistik unsur juda muhim rol o'ynaydi.

Buni biz XX asr o'zbek adabiyotining yerik vakili bo'lgan Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani misolida ko'rishimiz mumkin. Ushbu asar bamisoli ulkan va tiniq kuzgu, unda o'zbek millatining muayyan tarixiy sharoiti, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlar, ruhiy-ma'naviy dunyosi, bo'y-basti, qiyofasi keng ko'lamda aniq-ravshan tasvirlanadi. Shu bilan birga asarda ko'rsatilgan obrazlar ya'ni Yusufbek hoji, Otabek bilan Kumush, Zaynab va Xushruiy, O'zbekoyim, Oftoboyim yan bir qancha inson obrazlari o'ta ta'sirchan bayon etilgan. Asarda tasvirlangan xotin-qizlar bir ijtimoiy muhit va bir jinsga mansubligiga qaramasdan bir-biridan o'ta farqli, yorqin obrazlardir. Masalan Kumush, Oftoboyim ijobiy obrazda, Zaynab va Xushruh salbiy obrazda tasvirlanmoqda.

Adabiyot markazida inson va uning ichki dunyosidagi ruhiy holatlar, kechinmalar yotadi. Ularning shakllanish tarzini o'rganish tabiiy fanlardagi fikr yuritish uslubidan tubdan farqlanadi. Tabiiy fanlar zaminida mantiqiy fikr yuritish, tadrijiylik yotadi. Undagi barcha bilimlar isbot talab etadi. Adabiyotda esa, butunlay boshqacha dunyoqarash shakllanadi. Uning zaminini yorqin xilma-xil, rang-barang obrazlar tashkil etadi. Bu yerda barcha obrazlar xuddi quyoshning nurlariga o'xshab inson qalbidan tarqaladi. Demak, yuqoridagi botiniy ilm zaminida inson qalbi yotadi va undagi obrazlar xima-xil ko'rinishlarga ega bo'ladi. Ular o'zining tasirchanligi, insonning ruhiy holatiga, tasavvuriga kuchli ta'sir eta olishi bilan tabiiy fanlardan

farq qiladi. Shuning uchun ham gumanizm falsafasi antik davrdan boshlab, to hozirgi kungacha sanat va badiiy adabiyotdagi go'zal obrazlardan keng foydalanilgan va ularning zaminida o'ziga xos falsafiy dunyoqarash yaratib kelgan. Ushbu falsafiy obrazli dunyoqarash millionlab insonlar qalbiga bevosita to'g'ridan-to'g'ri tasir etish quvvatiga egadir. Masalan g'arbiy Yevropadagi Xayot falsafasining buyuk vakillaridan biri bo'lgan F.Nisshening falsafiy ijodini oladigan bo'lsak uning dunyoqarashi asosida aynan shunday inson ong ostiga ta'sir etuvchi go'zal obrazlar yotgan. Bu tisollar, siymolar yordamida Nisshening g'oyalari, minglab qalblarni o'ziga maftun etgan.

Alisher Navoiy asarlarida alohida to'xtalib o'tgan, bugungi kun uchun ham muhim bo'lgan ana shunday fazilatlardan ayrimlariga to'xtalib o'tishni lozim topdik. Buyuk bobomiz vatanni sevmoq komillikning, iymonning muhim sharti ekanini ta'kidlaydi. Vatanni g'animlardan himoya qilmoq, buning uchun kurashmoq har bir farzandning burchi. Bu g'oya «Saddi Iskandariy» dostonida quidagicha ifodalangan:

Iyolu vatan uzra to joni bor, Kishi harb etar toki imkoni bor . "Iyol" so'ziga Navoiy asarlari lug'atida „xotin, bola-chaqa; oila“ deya izox berilgan. Demak ulug' bobokolonimiz fikricha, vatanparvarlik oilasining osoyishtaligini saqlash, eng avvalo bir oila uy ostonasidan boshlanadi. Vatanning tinchligi uchun bor imkonini ishga solib, joni boricha kurashmoqdir. Barcha zamonlar uchun dolzarb bunday fikrlar ulug' ijodkor asarlarida ko'p uchraydi.

Abdulla Qodiriyning iste'dodi – noyob. Biz Navoiyni bejiz tilga olayotganimiz yo'q. Zotan, Abdulla Qodiriyning o'zbek maa'naviy olamiga qo'shgan hissasi hayotiy va ijobiy jasorati faqat hazrati Mir Alisher Navoiyning xizmatlariga qiyos etsak bo'ladi.

References:

1. Жўрақулов У. 2020. Қодирий ва роман тафаккури; монография - Тошкент: Нурафшон бусинесс.
2. Карим Б. 2018. Руҳият алифбоси. – Тошкент. Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
3. Ўзбек адабий танқиди; 2011. Антология – Тошкент: Турон-Иқбол нашриёти.
4. Qodiriy A 2019. O'tkan kunlar / roman / Adabiyot barkhayot asarlari turkumi / Nashrga tayyorlovchi: Khondamir Qodiriy-T :<Navruz>.
5. Қодирий А. Ёзувчи ўз иши тўғрисида, \\ Қизил Ўзбекистон 1935 йил 14 март.
6. Хотам Умаров. 2002. Адабиёт назарияси. Шарқ нашриёти-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. Тошкент.